



# O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 1 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	<i>SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI MODERNIZATSIYA QILISH VA UNING QAMROVINI OSHIRISH YO'LLARI</i> <i>Adilova Gulnur Djurabayevna</i>	4
2.	<i>AGROSANOAT MAJMUIDA SUG'URTALANGAN OB'EKTAR HOLATINI MONITORING QILISHDA RAQAMLI GAT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI</i> <i>Yadgarov Akram Akbarovich</i>	7
3.	<i>MAMLAKAT ICHKI INVESTITSION IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHDA SUG'URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI</i> <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	11
4.	<i>SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY HOLATINI BAHOLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH</i> <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	15
5.	<i>SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI BOSHQARISH TIZIMI</i> <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	20
6.	<i>MAMLAKATIMIZDA OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH</i> <i>Abdusattarova Dildora Bohodirovna</i>	25
7.	<i>O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY SOHA XARAJATLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI</i> <i>Rashidova Guzal Abduvohidovna, Xamroyev Mexroj Sirojxonovich</i>	29
8.	<i>KORXONALAR MOLIYAVIY NATIJALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLASHTIRISH TIZIMINING ROLI</i> <i>Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o'g'li, Faxriddinov Bekzodbek Faxriddin o'g'li</i>	32
9.	<i>TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BAHOLASHDA RISKLAR VA DIVERSIFIKATSIYANING O'RNI</i> <i>Toshtemirov Doston O'ktam o'g'li</i>	36
10.	<i>ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS: CONCEPTUAL FOUNDATIONS AND THREAT MITIGATION FRAMEWORK</i> <i>Agzamov Avazon Talgatovich, Malikova Dilrabo Muminovna</i>	40
11.	<i>ШАФФОФ ИНВЕСТИЦИОН МУХИТНИ ЯРАТИШГА ҚАРАТИЛГАН ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ</i> <i>Имомов Хамдилла Хамдамович</i>	44
12.	<i>TURIZM KORXONALARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH MASALALARI</i> <i>Axrorov Zarif Oripovich</i>	47
13.	<i>ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКУ</i> <i>Эргашева Юлдуз</i>	50
14.	<i>O'ZBEKISTONDA TRANSPORT LOGISTIKASI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH SAMARADORLIGI</i> <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Fozilova Shaxloxon</i>	52
15.	<i>YURIDIK SHAXSLAR MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI</i> <i>Agzamov Avazxon Talgatovich</i>	55
16.	<i>JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH TARTIBI VA UNING NAZARIY ASOSLARI</i> <i>Bobomurotova Manzura Panji qizi</i>	58
17.	<i>O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO STANDARTLARNING O'RNI VA AHAMIYATI</i> <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	62

## “O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshov Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



## MAMLAKATIMIZDA OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Abdusattarova Dildora Bohodirovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
d.abdusattarova@tsue.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizda oliy ta'lim eksport xizmatlari moliyaviy natijadorligini ta'minlashni takomillashtirish masalalari iqtisodiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarining eksportga yo'naltirilgan ta'lim xizmatlari orqali barqaror va uzoq muddatli moliyaviy daromadlarni shakllantirish mexanizmlari, xorijiy talabalarni jalb etishning samarali iqtisodiy instrumentlari hamda valyuta tushumlarini oshirish omillari kompleks yondashuv asosida yoritib beriladi. Shuningdek, ta'lim xizmatlari narxlash siyosatini takomillashtirish, ta'lim sifati va xalqaro reytinglar bilan bog'liq moliyaviy samaradorlikni oshirish, davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish hamda raqamli va innovatsion texnologiyalar asosida oliy ta'lim eksport xizmatlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash yo'llariga alohida e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'lim eksporti, moliyaviy natijadorlik, innovatsion rivojlanish, valyuta tushumlari, ta'lim xizmatlari bozori, xorijiy talabalar, narxlash siyosati, ta'lim sifati, raqobatbardoshlik, moliyaviy barqarorlik

**Abstract:** This article analyzes the issues of improving the provision of financial effectiveness of exporting higher education services in our country from an economic perspective. The study comprehensively examines the mechanisms for generating sustainable and long-term financial revenues of higher education institutions through export-oriented educational services, effective economic instruments for attracting foreign students, as well as factors contributing to increased foreign currency inflows. Special attention is paid to improving pricing policies for educational services, enhancing financial effectiveness associated with education quality and international rankings, developing public-private partnerships, and strengthening the financial sustainability of higher education service exports based on digital and innovative technologies.

**Keywords:** Higher education export, financial effectiveness, innovative development, foreign currency inflows, educational services market, foreign students, pricing policy, education quality, competitiveness, financial sustainability

**Абстрактный:** В данной статье с экономической точки зрения анализируются вопросы совершенствования обеспечения финансовой эффективности экспорта услуг высшего образования в нашей стране. В исследовании комплексно рассматриваются механизмы формирования устойчивых и долгосрочных финансовых доходов высших учебных заведений за счёт экспортно-ориентированных образовательных услуг, эффективные экономические инструменты привлечения иностранных студентов, а также факторы увеличения валютных поступлений. Особое внимание уделяется совершенствованию ценовой политики образовательных услуг, повышению финансовой эффективности, связанной с качеством образования и международными рейтингами, развитию государственно-частного партнёрства, а также укреплению финансовой устойчивости экспорта услуг высшего образования на основе цифровых и инновационных технологий.

**Ключевые слова:** Экспорт высшего образования, финансовая эффективность, инновационное развитие, валютные поступления, рынок образовательных услуг, иностранные студенты, ценовая политика, качество образования, конкурентоспособность, финансовая устойчивость

### Introduction (Kirish/Vvedenie).

O'zbekiston tajribasida oliy ta'lim eksport xizmatlarining moliyaviy natijadorligini ta'minlash masalasi strategik ahamiyat kasb etib, bu jarayonda ta'lim xizmatlari sifati, narxlash siyosati, xalqaro reyting va akkreditatsiya tizimlarida ishtirok etish, shuningdek, davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish muhim omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim eksportini tizimli rivojlantirish orqali nafaqat ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi ta'minlanadi, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va innovatsion salohiyati ham oshadi.

Mazkur jarayonda oliy ta'lim xizmatlari nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega soha, balki barqaror moliyaviy natijalar keltiruvchi, yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga qodir iqtisodiy faoliyat turi sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, oliy ta'lim eksporti orqali xorijiy talabalarni jalb etish, xalqaro ta'lim dasturlarini rivojlantirish hamda ta'lim xizmatlari diversifikatsiyasini ta'minlash mamlakat iqtisodiyotida valyuta tushumlarini oshirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu boisdan, O'zbekistonda oliy ta'lim eksport xizmatlarining moliyaviy natijadorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlarni chuqur tahlil qilish, xorijiy talabalarni jalb etishning samarali moliyaviy instrumentlarini ishlab chiqish hamda raqamli va innovatsion yondashuvlar asosida ta'lim xizmatlari eksportining barqaror

modelini shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "keyingi yillarda "Raqamli startaplar" dasturini kengaytirish va startap g'oyasidan to tayyor eksport mahsulotigacha bo'lgan jarayonni qamrab oluvchi yangi qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish rejalashtirilayotgani oliy ta'lim muassasalari va innovatsion ekotizim o'rtasidagi integratsiyani kuchaytiriladi. Mazkur mexanizm oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, ilmiy-tadqiqot va startap faoliyatining uzviy bog'liqligini ta'minlab, eksportga yo'naltirilgan bilim va texnologiyalarni tijoratlashtirish imkoniyatlarini kengaytiriladi". [1]

Shuningdek, xususiy startap markazlarini tashkil etishni rag'batlantirish maqsadida Yoshlar jamg'armasi mablag'lari hisobidan uzoq muddatli foizsiz ssudalar ajratilishi hamda oliy ta'lim muassasalarida qoladigan mablag'larning muayyan qismini inkubatsiya markazlarini rivojlantirishga yo'naltirish ta'lim eksportining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu choralar oliy ta'lim muassasalarining innovatsion va tadbirkorlik salohiyatini oshirib, xorijiy talabalar va xalqaro ta'lim dasturlarini jalb etish orqali oliy ta'lim eksport xizmatlari moliyaviy natijadorligini takomillashtirishga xizmat qiladi. Natijada oliy ta'lim eksport xizmatlarining amaliy yo'naltirilganligi yanada kuchayib, ularning

moliyaviy natijadorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi barqaror iqtisodiy mexanizmlar shakllanadi. Mazkur jarayonda hududiy xususiyatlarni mexanizmlar shakllanadi. Mazkur jarayonda hududiy xususiyatlarni mexanizmlar shakllanadi. Mazkur jarayonda hududiy xususiyatlarni mexanizmlar shakllanadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda chet ellik talabalar uchun qulay ta'lim va yashash sharoitlarini yaratishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar mamlakatimizda oliy ta'lim eksport xizmatlari moliyaviy natijadorligini ta'minlashni takomillashtirish, ularning iqtisodiy ahamiyatini oshirish hamda O'zbekistonning xalqaro ta'lim bozorida raqobatbardosh mavqeyini mustahkamlash zaruratini yanada kuchaytiradi.

#### Adabiyotlar sharhi (Обзор литературы/Literature review)

Hozirgi globallashuv sharoitida oliy ta'lim xizmatlarining xalqaro miqyosda jadal kengayib borishi mazkur sohani nafaqat ijtimoiy institut, balki yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lgan xizmatlar faoliyati sifatida talqin etishni taqozo etmoqda. Ilmiy adabiyotlarda oliy ta'lim eksporti xizmatlar iqtisodiyoti, inson kapitali nazariyasi hamda globallashuv va xalqaro savdo konsepsiyalari doirasida keng yoritilib, uning mamlakatimizda milliy iqtisodiyoti uchun moliyaviy natijadorligini oshirishdagi strategik ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Mazkur nazariy yondashuvlar oliy ta'lim xizmatlarini eksportga yo'naltirish orqali barqaror va uzoq muddatli moliyaviy daromad manbalarini shakllantirish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda ta'lim eksporti xizmatlar savdosining muhim va istiqbolli shakllaridan biri sifatida e'tirof etilib, OECD tomonidan oliy ta'lim eksporti iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda innovatsion rivojlanishni rag'batlantiruvchi muhim omil sifatida baholanadi. Ayniqsa, xorijiy talabalar mobilligi orqali amalga oshiriladigan ta'lim xizmatlari eksporti eng keng tarqalgan va moliyaviy jihatdan samarali model sifatida qaraladi. Ushbu model oliy ta'lim muassasalariga valyuta tushumlarini oshirish, ta'lim xizmatlari portfelini diversifikatsiya qilish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash imkonini berib, mamlakatimizda oliy ta'lim eksport xizmatlari moliyaviy natijadorligini ta'minlashni takomillashtirishga xizmat qiladi. [2]

Shu bilan birga, ta'lim tizimlarining moliyalashtirilishi, qamrov darajasi va natijadorlik indikatorlari bo'yicha xalqaro taqqoslashlar oliy ta'lim eksport xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini baholashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ko'rsatkichlar oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish hamda eksportga yo'naltirilgan ta'lim xizmatlari orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, O'zbekistonda oliy ta'lim eksport xizmatlarining moliyaviy natijadorligini oshirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

A.Schleicher oliy ta'lim eksportini ta'lim sifati va iqtisodiy samaradorlik uyg'unligi sifatida talqin qiladi. [3] Martin Carnoy ta'lim xizmatlari eksportini bilinga asoslangan iqtisodiyotning daromad keltiruvchi segmenti sifatida baholaydi. [4] George Psacharopoulos oliy ta'lim eksportini inson kapitaliga investitsiyaning yuqori daromadli shakli deb ta'kidlaydi. [5]

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun oliy ta'lim eksporti katta imkoniyatlar bilan bir qatorda muayyan muammolarni ham keltirib chiqarishi hamda oliy ta'lim eksporti sifat, tenglik va milliy manfaatlar muvozanatini ta'minlashni talab qilishini qayd etadi.

Mahalliy olimlardan O.S.Uralov O'zbekistonda oliy ta'limni xalqaro-lashtirish islohotlari, motivlari va amaliy holatini tahlil qiladi. [6] O.A.Abdullayev esa oliy ta'lim eksportini xizmatlar sohasida yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi faoliyat turi sifatida izohlaydi va xorijiy talabalarni jalb etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishini asoslaydi. [7]

Philip G. Altbach oliy ta'limni globallashuv sharoitida xalqaro xizmatlar bozorining muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, xorijiy talabalar oqimini iqtisodiy va akademik resurs manbai deb hisoblaydi. [8] Simon Marginson oliy ta'lim eksportini "yumshoq kuch" (soft power) va global raqobat vositasi sifatida talqin qiladi. [9] E.Hazelkorn reytinglar oliy ta'lim eksporti va universitetlar raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. [10]

Yuqorida tahlil qilingan ilmiy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda oliy ta'lim eksport xizmatlari zamonaviy iqtisodiyot sharoitida yuqori qo'shilgan qiymat yaratish, inson kapitalini rivojlantirish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish

bilan bir qatorda, barqaror moliyaviy natijalarni ta'minlashga qodir strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro ilmiy qarashlarda oliy ta'lim eksporti oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, valyuta tushumlarini ko'paytirish va ta'lim xizmatlari bozorida raqobat ustunliklarini shakllantirishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur yondashuvlar mamlakatimizda oliy ta'lim eksport xizmatlari moliyaviy natijadorligini ta'minlashni takomillashtirish masalasini kompleks tahlil asosida o'rganish zarurligini asoslaydi. Xususan, ta'lim xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirish, moslashuvchan narxlash mexanizmlarini joriy etish, xalqaro reyting va akkreditatsiya tizimlarida faol ishtirok etish, shuningdek, institutsional va moliyaviy boshqaruv samaradorligini kuchaytirish orqali O'zbekistonda oliy ta'lim eksport xizmatlarining moliyaviy natijadorligini barqaror rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

#### Adabiyotlar sharhi (Обзор литературы/Literature review)

Mazkur tadqiqot mamlakatimizda oliy ta'lim eksport xizmatlari moliyaviy natijadorligini ta'minlashni takomillashtirish hamda ularning milliy iqtisodiyot rivojiga ta'sirini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullariga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim eksport xizmatlarining moliyaviy samaradorligini baholashda nazariy tahlil, empirik kuzatuv hamda iqtisodiy-statistik usullardan kompleks tarzda foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot doirasida iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy omillarning o'zaro bog'liqligi aniqlanib, ta'lim xizmatlari sifati, narxlash mexanizmlarining samaradorligi, institutsional muhit hamda moliyaviy boshqaruv tizimining takomillashuvi oliy ta'lim eksport xizmatlari moliyaviy natijadorligini oshirishdagi ta'siri har tomonlama va tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi.

#### Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты/Analysis and results)

Mamlakatimizda oliy ta'lim eksport xizmatlari moliyaviy natijadorligini ta'minlashni takomillashtirish masalasi zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim xizmatlarini yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan iqtisodiy faoliyat turi sifatida shakllantirib, ularni xalqaro xizmatlar bozorining muhim segmentiga aylantirmoqda. Shu jihatdan, oliy ta'lim eksporti xorijiy talabalarni jalb etish, xalqaro ta'lim dasturlarini kengaytirish va ta'lim xizmatlari diversifikatsiyasini ta'minlash orqali barqaror moliyaviy daromadlar hamda valyuta tushumlarini oshirishning muhim manbai bo'lib xizmat qiladi.

Oliy ta'lim eksport xizmatlarining moliyaviy natijadorligini oshirish ta'lim sifati, moslashuvchan narxlash siyosati, xalqaro reyting va akkreditatsiya tizimlarida ishtirok etish, shuningdek, institutsional va moliyaviy boshqaruv samaradorligini kuchaytirish bilan uzviy bog'liqdir. Davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish, raqamli va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda ta'lim infratuzilmasini modernizatsiya qilish ushbu jarayonning muhim omillari sifatida namoyon bo'ladi. Globallashuv va jahon iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi sharoitida oliy ta'lim xizmatlari xalqaro xizmatlar bozorida yuqori talabga ega bo'lgan istiqbolli eksport yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Oliy ta'lim eksporti orqali xorijiy talabalarni jalb etish, xalqaro ta'lim dasturlarini rivojlantirish hamda ta'lim xizmatlari diversifikatsiyasini kengaytirish ko'plab mamlakatlarda barqaror moliyaviy daromadlar va valyuta tushumlarini shakllantirishning muhim manbai sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimizda oliy ta'lim eksport xizmatlari rivojlanayotgan bo'lsa-da, ularning moliyaviy natijadorligini ta'minlash va takomillashtirish bilan bog'liq qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, ta'lim xizmatlari sifati va xalqaro raqobatbardoshlik darajasi, narxlash siyosatining yetarlicha moslashuvchan emasligi, xalqaro reyting va akkreditatsiya tizimlarida ishtirokning cheklanganligi, shuningdek, institutsional va moliyaviy boshqaruv mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligi oliy ta'lim eksport xizmatlarining moliyaviy salohiyatini to'liq ro'yogga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, raqamli va innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi, davlat va xususiy sektor hamkorligining rivojlanish sur'atlari hamda ta'lim infratuzilmasining hududlar kesimida notekis rivojlanishi oliy ta'lim eksport xizmatlari moliyaviy natijadorligini oshirish imkoniyatlarini cheklamoqda. Mazkur omillar xorijiy talabalarni jalb etish jarayonida raqobat ustunliklarini shakllantirish va ta'lim eksportidan olinadigan daromadlarni barqarorlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu boisdan, mamlakatimizda oliy ta'lim eksport xizmatlari moliyaviy natijadorligini ta'minlashni takomillashtirishga

qaratilgan kompleks va ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish, ta'lim sifati, moliyaviy mexanizmlar, institutsional muhit va innovatsion infratuzilmani uyg'un rivojlantirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

## 1-jadval

Mamlakatimizda oliy ta'lim eksport xizmatlari moliyaviy natijadorligini ta'minlashni takomillashtirishdagi muammolar<sup>1</sup>

Muammo yo'nalishi	Muammo mazmuni	Moliyaviy natijadorlikka ta'siri
Ta'lim sifati va raqobatbardoshlik	O'quv dasturlarining xalqaro standartlarga to'liq mos emasligi, reytinglardagi past pozitsiyalar	Xorijiy talabalar oqimi cheklanadi, daromadlar o'sishi sekinlashadi
Narxlash siyosati	Kontrakt narxlarining bozor mexanizmlariga yetarlicha moslashmaganligi	Raqobat ustunliklari kamayadi, moliyaviy samaradorlik pasayadi
Institutsional muhit	Akkreditatsiya, litsenziyalash va boshqaruv jarayonlarining murakkabligi	Eksport faoliyatining tezligi va barqarorligi pasayadi
Moliyalashtirish mexanizmlari	Byudjetdan tashqari mablag'lar ulushining pastligi, investitsiyalar yetishmasligi	Moliyaviy barqarorlik va rivojlanish cheklanadi
Xalqaro integratsiya	Qo'shma va ikki diplomli dasturlar sonining kamligi	Ta'lim eksporti geografiyasi kengaymaydi
Raqamli infratuzilma	Masofaviy ta'lim va raqamli platformalarning yetarli rivojlanmaganligi	Xarajatlar yuqori, eksport salohiyati cheklangan
Marketing va brending	Xalqaro ta'lim bozorida OTMlar brendining sust targ'ib qilinishi	Xorijiy talabalarni jalb etish samarasi past
Kadrlar salohiyati	Ilmiy-pedagogik kadrlarning xalqaro tajribasi yetarli emas	Ta'lim sifati va eksport jozibadorligi pasayadi
Hududiy nomutanosiblik	Hududlarda oliy ta'lim infratuzilmasining notekis rivojlanishi	Eksport salohiyati hududlar bo'yicha cheklanadi

Mamlakatimizda oliy ta'lim eksport xizmatlarining moliyaviy natijadorligini ta'minlashni takomillashtirish jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish kompleks va ilmiy asoslangan yondashuvlarni talab etadi. Avvalo, ta'lim sifati va xalqaro raqobatbardoshlik darajasi yetarli darajada yuqori emasligi xorijiy talabalarni keng miqyosda jalb etish imkoniyatlarini cheklamoqda. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun o'quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, xalqaro akkreditatsiya va reyting tizimlarida faol ishtirok etish hamda ta'lim natijalarini xalqaro mezonlar asosida baholash tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, ta'lim xizmatlari narxlash siyosatining moslashuvchan emasligi oliy ta'lim eksportining moliyaviy samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu borada kontrakt to'lovlarini ta'lim dasturlari, hududiy xususiyatlar va xorijiy bozor talablari asosida differensiallashtirish, shuningdek, chegirmalar va stipendiya mexanizmlarini kengaytirish orqali narxlash siyosatini takomillashtirish zarur.

Institutsional muhitning murakkabligi, xususan, litsenziyalash, akkreditatsiya va boshqaruv jarayonlarining ko'p bosqichli ekanligi ta'lim eksporti faoliyatining samaradorligini pasaytirmoqda. Ushbu muammoni hal etish uchun xorijiy talabalar bilan bog'liq barcha

xizmatlarni "yagona oyna" tamoyili asosida tashkil etish, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish va raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalarining moliyalashtirish manbalari yetarlicha diversifikatsiya qilinmaganligi ularning moliyaviy barqarorligini cheklamoqda. Mazkur yo'nalishda ta'lim eksportidan tushadigan daromadlarni qayta investitsiya qilish mexanizmlarini joriy etish, xususiyl investitsiyalar va xalqaro grantlarni jalb etish hamda davlat-xususiyl sektor hamkorligini rivojlantirish zarur. [11]

Xalqaro integratsiya darajasining pastligi, jumladan, qo'shma va ikki diplomli dasturlar sonining kamligi ta'lim eksportining geografiyasini kengaytirishga to'sqinlik qilmoqda. Bu muammoni bartaraf etish uchun yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish, qo'shma ta'lim dasturlarini ko'paytirish va xalqaro akademik almashinuvlarni rivojlantirish muhimdir.

Raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ham oliy ta'lim eksport xizmatlari moliyaviy natijadorligini oshirish imkoniyatlarini cheklamoqda. Shu bois, masofaviy va gibril ta'lim dasturlarini rivojlantirish, raqamli ta'lim platformalarini joriy etish hamda sun'iy intellekt va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish orqali ta'lim eksportini hududiy cheklovlarisiz kengaytirish lozim.

Shuningdek, xalqaro marketing va brending faoliyatining sustligi xorijiy talabalar orasida mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining tanilish darajasini pasaytirmoqda. Bu borada yagona milliy "Study in Uzbekistan" brendini shakllantirish va xalqaro axborot maydonida faol targ'ib qilish zarur.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni tizimli va izchil bartaraf etish mamlakatimizda oliy ta'lim eksport xizmatlari moliyaviy natijadorligini ta'minlashni takomillashtirish, valyuta tushumlarini ko'paytirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

## 2-jadval

Ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi,<sup>2</sup>(mlrd. so'mda)

Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024	O'zgarishi
O'zbekiston Respublikasi	853,9,4	1210,2,6	1585,8,4	2453,3,1	3197,5	23435,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	369,1	568,1	694,2	811,2	923,2	554,1
Andijon viloyati	473,3	631,3	951,1	1258,2	1573,6	1100,3
Buxoro viloyati	517,3	723,6	773,2	1243,7	1619,5	1102,2
Jizzax viloyati	232,4	333,1	412,9	500,5	480,7	248,3
Qashqadaryo viloyati	373,4	498,5	647	973,1	1282,9	909,5
Navoiy viloyati	209,3	273,8	360,2	566,3	436,3	227
Namangan viloyati	402,4	575,9	743,2	1140,1	1600	1197,6
Samarqand viloyati	694,2	1003,5	1202	1994,7	2594,7	1900,5
Surxondaryo viloyati	323,3	481,5	673,5	787	846,8	523,5
Sirdaryo viloyati	138,9	199,2	213,8	260,3	309,3	170,4
Toshkent viloyati	401,3	512,6	650,7	1001	1746,2	1344,9
Farg'ona viloyati	564,3	950,5	1066,7	1451,4	1754,3	1190
Xorazm viloyati	315,4	375,9	575,2	733,5	884,9	569,5
Toshkent shahri	352,4,8	4975,1	6894,7	1181,2,1	1592,2,6	12397,8

Yuqoridagi 2 - jadval 2020-2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi hududlari kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmining dinamikasini aks ettirib, oliy ta'lim xizmatlarining moliyaviy natijadorligini hududiy jihatdan baholash imkonini beradi. Jadval ma'lumotlari mamlakatimizda ta'lim, xususan oliy ta'lim xizmatlari bozorining kengayib borayotganini va ushbu sohaning iqtisodiy ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Umumiy respublika miqyosida

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi<sup>2</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

ta'lim xizmatlari hajmi 2020-yildagi 8 539,4 mlrd. so'mdan 2024-yilda 31 975 mlrd. so'mga yetib, 23 435,6 mlrd. so'mga o'sgan. Ushbu o'sish oliy ta'lim muassasalari faoliyatining kengayishi, pullik ta'lim xizmatlari ulushining oshishi hamda xorijiy talabalarni jalb etish orqali ta'lim xizmatlari eksporti hajmining ko'payishi bilan izohlanadi. Bu holat oliy ta'lim eksport xizmatlarining moliyaviy natijadorligini ta'minlash va uni takomillashtirish dolzarbligini kuchaytiradi.

Hududlar kesimida tahlil shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahri ta'lim xizmatlari hajmi bo'yicha yetakchi mavqeni egallab, 2024-yilda 15 922,6 mlrd. so'm ko'rsatkichga erishgan. Ushbu hududda o'sish hajmining yuqoriligi oliy ta'lim muassasalari zichligi, xalqaro va nodavlat OTmlar faoliyatining rivojlanganligi hamda xorijiy talabalar oqimining yuqoriligi bilan izohlanadi. Bu Toshkent shahrini oliy ta'lim eksport xizmatlari bo'yicha asosiy moliyaviy markaz sifatida tavsiflash imkonini beradi. Samarqand, Farg'ona, Namangan, Andijon va Toshkent viloyatlarida ham ta'lim xizmatlari hajmining sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Xususan, Samarqand viloyatida o'sish hajmi 1 900,5 mlrd. so'mni tashkil etib, ushbu hududning mintaqaviy ta'lim markazi sifatidagi rolini kuchaytirayotganini ko'rsatadi. Bu hududlarda oliy ta'lim eksport xizmatlarining moliyaviy natijadorligini oshirish uchun mavjud salohiyat yetarli ekanini anglatadi.

Ayrim hududlarda (Jizzax, Navoiy viloyatlari) o'sish sur'atlarining nisbatan pastligi kuzatilmoqda. Bu holat oliy ta'lim muassasalari sonining kamligi, ta'lim xizmatlari diversifikatsiyasining yetarli emasligi hamda xorijiy talabalarni jalb etish mexanizmlarining cheklanganligi bilan izohlanadi. Shu jihatdan mazkur hududlarda oliy ta'lim eksport xizmatlarining moliyaviy samaradorligini oshirish uchun maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Umuman olganda, jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda oliy ta'lim xizmatlari bozorining hududiy rivojlanish darajasi bir xil emas. Bu esa oliy ta'lim eksport xizmatlarining moliyaviy natijadorligini ta'minlashda hududiy differensial yondashuvni joriy etish zarurligini asoslaydi. Yuqori salohiyatga ega hududlarda ta'lim eksportini yanada kengaytirish, past ko'rsatkichli hududlarda esa infratuzilma va ta'lim marketingini rivojlantirish orqali moliyaviy samaradorlikni oshirish mumkin.

#### Xulosa va takliflar (Заключение/Conclusion)

Mazkur izlanishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim eksport xizmatlari zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida mamlakatimiz uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan, yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan va barqaror moliyaviy daromadlarni shakllantirishga qodir istiqbolli xizmatlar yo'nalishi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda oliy ta'lim xizmatlari hajmining, xususan pullik va eksportga yo'naltirilgan ta'lim xizmatlarining jadal o'sib borishi oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

Hududiy va makroiqtisodiy tahlillar ta'lim xizmatlari, ayniqsa oliy ta'lim xizmatlarining YaIM va xizmatlar sohasidagi ulushi oshib borayotganini tasdiqlaydi. Bu holat oliy ta'lim eksport xizmatlari orqali valyuta tushumlarini ko'paytirish, ta'lim muassasalarining moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, tadqiqot davomida ta'lim sifati, narxlash siyosati, xalqaro reyting va akkreditatsiya, institutsional muhit, moliyaviy boshqaruv hamda raqamli infratuzilma bilan bog'liq muammolar oliy ta'lim eksport xizmatlarining moliyaviy natijadorligini to'liq ro'yobga chiqarishga to'stinlik qilayotgan omillar sifatida aniqlandi. O'rganilgan xorijiy va milliy ilmiy yondashuvlar, shuningdek, amaliy tahlil natijalari mamlakatimizda oliy ta'lim eksport xizmatlari moliyaviy natijadorligini ta'minlashni takomillashtirish masalasi kompleks va tizimli yondashuvni talab etishini ko'rsatadi.

Tadqiqot xulosalari asosida mamlakatimizda oliy ta'lim eksport xizmatlari moliyaviy natijadorligini ta'minlash va uni takomillashtirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. Oliy ta'lim eksportini moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirish. Ta'lim xizmatlari eksportini milliy xizmatlar eksporti strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida belgilab, oliy ta'lim muassasalari daromadlarida eksport tushumlari ulushini oshirishga yo'naltirilgan maqsadli dasturlarni joriy etish zarur.

2. Ta'lim xizmatlari sifatini xalqaro standartlar asosida oshirish. O'quv dasturlarini xalqaro me'yorlarga moslashtirish, xalqaro akkreditatsiya va reyting tizimlarida ishtirokni kengaytirish orqali oliy ta'lim xizmatlarining eksportbopligini va moliyaviy samaradorligini kuchaytirish lozim.

3. Moslashuvchan va bozor mexanizmlariga asoslangan narxlash siyosatini joriy etish. Xorijiy talabalar uchun kontrakt to'lovlarini ta'lim yo'nalishlari, hududiy xususiyatlar va xalqaro bozor talablaridan kelib chiqib differensiallashtirish moliyaviy natijadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

4. Davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish. Nodavlat oliy ta'lim muassasalari, xorijiy investorlar va ta'lim klasterlari ishtirokida qo'shma dasturlarni kengaytirish orqali ta'lim eksportidan olinadigan daromadlarni ko'paytirish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, yuqoridagi takliflarni izchil amalga oshirish mamlakatimizda oliy ta'lim eksport xizmatlari moliyaviy natijadorligini barqaror oshirish, ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro ta'lim bozorida raqobatbardosh mavqeyini kuchaytirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/References):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025 yil. <https://president.uz/oz/lists/view/8834>
2. Education at a Glance 2025. OECD Indicators [https://www.oecd.org/en/publications/education-at-a-glance-2025\\_1c0d9c79-en](https://www.oecd.org/en/publications/education-at-a-glance-2025_1c0d9c79-en)
3. Schleicher A. Weltklasse //Schule für das 21. Jahrhundert gestalten. – 2019. – T. 1.
4. Carnoy M., Rhoten D. What does globalization mean for educational change? A comparative approach //Comparative education review. - 2002. - T. 46. №. 1. - C. 1-9.
5. Psacharopoulos G. Returns to investment in education: A global update //World development. - 1994. - T. 22. - №. 9. - C. 1325-1343.
6. Uralov O.S. Internationalization of higher education in Uzbekistan //Social Sciences & Humanities Open. – 2020. – T. 2. – №. 1. – C. 100015.
7. Abdullayev O.A. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
8. Altbach P. G. Globalisation and the university: Myths and realities in an unequal world //Tertiary Education & Management. - 2004. - T. 10. - №. 1. - C. 3-25.
9. Knight J. Cross-border higher education: Issues and implications for quality assurance and accreditation //Report: Higher Education in the World 2007: Accreditation for Quality Assurance: What is at Stake?. - 2007.
10. Hazelkorn E. Rankings and the reshaping of higher education: The battle for world-class excellence. – Springer, 2015.
11. Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich. (2025). Sug'urta xizmatlariga bo'lgan iste'mol talabini oshirishning innovatsion yo'llari. Insurance market of Uzbekistan, 2(6), 4–8. [https://doi.org/10.55439/INS/vol2\\_iss6/336](https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss6/336)